



SO'Z ERKINLIGI VA UNING HUQUQIY CHEGARALARI:
KONSTITUTSIYAVIY HIMOYA VA REAL HAYOTDAGI TAHDIDLAR.

Kurbanova Marjona Sultanovna

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, "Xalqaro huquq" fakulteti,
1 - bosqich talabasi, Kurbanovamarjonauwed@gmail.com*

Anotatsiya: Mazkur maqolada so'z erkinligi huquqining mohiyati, uning demokratik jamiyatdagi o'rni va O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida qanday himoyalangani tahlil qilinadi. Shuningdek, so'z erkinligining huquqiy chegaralari – milliy xavfsizlik, diniy nafratni targ'ib qilish, feyk yangiliklar (soxta axborot) tarqatish kabi holatlar kontekstida yoritiladi va shu bilan birgalikda Konstitutsiyaga ko'ra, "har kim fikrlash, so'z erkinligi va e'tiqod erkinligi huquqiga ega" ekanligi haqida so'z boradi. Mazkur maqolada real hayotdagi tahdidlar va so'z erkinligi o'rtasidagi muvozanatni saqlash zarurati haqida ham mulohaza yuritiladi. Huquqiy tartibot va erkinlik o'rtasidagi murakkab bog'liqlik misollar asosida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: So'z erkinligi, Konstitutsiya, huquqiy cheklov, milliy xavfsizlik, diniy nafrat, feyk yangiliklar, axborot erkinligi, demokratik jamiyat, huquq va javobgarlik, qonunchilik.

Annotation: This article analyzes the essence of the right to freedom of speech, its role in a democratic society, and how it is protected by the Constitution of the Republic of Uzbekistan. It also highlights the legal boundaries of freedom of speech in the context of national security, incitement of religious hatred, and the dissemination of fake news (disinformation). Furthermore, the article discusses the constitutional provision that "everyone shall have the right to freedom of thought, speech, and religion." The necessity of maintaining a balance between real-life threats and freedom of speech is examined. The complex relationship between legal order and freedom is revealed through specific examples.

Keywords: Freedom of speech, Constitution, legal restrictions, national security, religious hatred, fake news, information freedom, democratic society, rights and responsibilities, legislation.

Аннотация: В данной статье анализируется сущность права на свободу слова, его значение в демократическом обществе и то, как оно защищается Конституцией Республики Узбекистан. Также рассматриваются правовые границы свободы слова в контексте национальной безопасности, разжигания религиозной ненависти и распространения фейковых новостей



(дезинформации). Кроме того, подчёркивается положение Конституции о том, что «каждый имеет право на свободу мысли, слова и вероисповедания». В статье обсуждается необходимость сохранения баланса между угрозами в реальной жизни и свободой слова. Сложные взаимосвязи между правовым порядком и свободой раскрываются на конкретных примерах.

Ключевые слова: Свобода слова, Конституция, правовые ограничения, национальная безопасность, религиозная ненависть, фейковые новости, свобода информации, демократическое общество, права и ответственность, законодательство.

Erkinlik bu tushuncha o'zi nima? Bu insonning holati bo'lib, unda u o'z harakatlarining hal qiluvchi sababi hisoblanadi, ya'ni ular boshqa omillar, shu jumladan tabiiy, ijtimoiy, shaxslararo va individual umumiy omillar bilan bog'liq emas, Ammo agar inson o'z xatti-harakatlarining boshqalarga yetkazishi mumkin bo'lgan zararini hisobga olmasa, bu holat erkinlikni noto'g'ri talqin qilishga — ya'ni ruxsat etilganlik bilan aralashtirib yuborishga olib keladi.[1]

Erkinlikning turli tariflarini ko'rib chiqishimiz mumkin. Falsafada erkinlik - bu tashqi maqsad qo'yilganda faoliyat va xulq-atvor imkoniyatlarini belgilab beruvchi sub'ektiv tomonning universal madaniyati. [2] Keling bunga soddaroq shakilda tarif berib o'tamiz! Erkinlik insonning oddiy harakat qilish erki emas, balki ongli tanlovi hisoblanadi. Bunda inson o'z oldiga aniq maqsad qo'yadi, misol uchun, bilim olish, ma'lumotlarni almashish, fikrlash va so'z erkinligi kabilar shular jumlasidandir.

Qonunda erkinlik - bu konstitutsiya yoki boshqa qonun hujjatlarida (masalan, so'z erkinligi, diniy e'tiqod erkinligi va boshqalar) mustahkamlangan muayyan insoniy xatti-harakatlarning imkoniyati. Erkinlik toifasi sub'ektiv ma'noda huquq tushunchasiga yaqin, ammo ikkinchisi amalga oshirishning huquqiy mexanizmining mavjudligini va odatda davlat yoki boshqa sub'yektning biron bir harakatni amalga oshirish bo'yicha tegishli majburiyatini anglatadi. Aksincha, huquqiy erkinlik aniq amalga oshirish mexanizmiga ega emas, bu erkinlikni buzadigan har qanday xatti-harakatlardan saqlanish majburiyatiga mos keladi. Shunday qilib, "Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasida" (1789, Frantsiya), inson erkinligi "boshqasiga zarar keltirmaydigan hamma narsani qilish qobiliyati" sifatida talqin etiladi: shuning uchun har bir insonning tabiiy huquqlarini amalga oshirish faqat o'sha chegaralar bilan cheklanadi. Jamiyatning boshqa a'zolariga ham xuddi shunday huquqlardan foydalanishni ta'minlashdir. Bu chegaralar faqat qonun bilan belgilanishi mumkin"[3]



Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2023-yil 30-aprel kuni umumxalq referendumi orqali qabul qilingan yangi tahririda so'z erkinligi aniq va mustahkam huquqiy asosda kafolatlangan.

So'z erkinligining konstitutsiyaviy himoyasi: Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning II bo'lim V bob 33- moddasida shunday deb keltirilgan "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Bu norma fuqarolarga o'z fikrini erkin ifoda etish, axborot izlash va tarqatish huquqini taqdim etadi. Shuningdek, bu huquqlarni amalga oshirishda boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini hurmat qilish zarurligi ham nazarda tutiladi. Bu bilan Yangi O'zbekistonda shaxsning erkinligiga qay darajada e'tibor berilayotganini ko'rishimiz mumkin.

Erkinlik va javobgarlik o'rtasidagi muvozanat. Konstitutsiyada so'z erkinligi kafolatlangan bo'lsa-da, bu erkinlik mutlaq emas. Fuqarolar o'z fikrlarini ifoda etishda boshqa shaxslarning sha'ni, qadr-qimmati va qonuniy manfaatlariga zarar yetkazmasliklari lozim. Shuningdek, milliy xavfsizlik, jamoat tartibi, sog'liqni saqlash yoki axloq-odobni himoya qilish kabi omillar ham erkinlikni cheklash uchun asos bo'lishi mumkin. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi so'z erkinligini demokratik jamiyatning ajralmas qismi sifatida tan oladi va uni huquqiy jihatdan kafolatlaydi. Biroq, bu erkinlik boshqa fuqarolarning huquqlari va jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi zarur.

Demak, har bir O'zbekiston fuqarosi qonun hujjatlarida taqiqlanmagan har qanday vositalar yordamida erkin axborot izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining fikr va so'z erkinligi to'g'risidagi me'yorlari "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro pakt" (18, 19- moddalar), "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" (19-modda) va "Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Evropa konvensiyasi" (9, 10-modda) kabi xalqaro hujjatlardagi fikr va so'z erkinligiga oid me'yorlarga to'la mos tushadi. Axborot erkinligi haqidagi xuddi shunday qoidalar boshqa mamlakatlar konstitutsiyalarida ham mavjud. Masalan, AQSH Konstitutsiyasida so'z va matbuot erkinligi hukumatga fuqarolarning so'z erkinligi huquqini cheklashni taqiqlovchi Birinchi qo'shimcha orqali mustahkamlangan. Jumladan, AQSH konstitutsiyasiga kiritilgan Birinchi qo'shimchaga ko'ra "Kongress so'z va matbuot erkinligini taqiqlovchi qonunlar ishlab chiqishga haqqi yo'q".

Axborot erkinligining qonuniy kafolatlari: Axborot olish huquqi insonning faqat fuqaroviy huquqigina emas, balki daxlsiz huquqi hamdir. Buning qonuniy kafolatlari quyidagi me'yorlarda o'z aksini topgan: "**Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi**" "**Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Pakt**",





“Inson huquqlari va asosiy erkinliklar to‘g‘risida Yevropa Konvensiyasi” kabi xalqaro huquqiy me‘yorlarda axborot va g‘oyalarni har qanday vosita bilan davlat chegaralaridan qat’i nazar izlash, olish va tarqatish erkinligi kafolatlanadi deyilgan.

O‘zbekiston Respublikasi **“Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”**gi Qonunning 3-moddasi: “Har bir fuqaroning axborot olish huquqi kafolatlanadi. Har kimning axborot izlash, olish, tadqiq etish, uzatish va tarqatish huquqi davlat tomonidan himoya qilinadi”.

Shuningdek, **“Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligi to‘g‘risida”** Qonuni ham fuqarolar va OAV xodimlarining axborotlarni moneliksiz erkin olishini kafolaydigan hujjatlardan biridir.

Axborot olishga oid cheklovlar Bir narsani unutmaslik zarurki har doim ham axborotlardan foydalanish erkin bo‘lmaydi. Ya’ni ba’zan axborotlarni olish amaldagi qonunchilik bilan ham cheklanishi mumkin. Tadqiqotchi V.N. Lopatin Konstitutsiyaviy qoidalarni tahli etgan holda fuqarolarning axborot olish huquqlarini cheklashni quyidagi qismlarga ajratadi:

- amaldagi konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish maqsadida;
- boshqa shaxslarning qonuniy huquqlarini, axloqni, salomatlikni himoya qilish maqsadida;
- davlat mudofaasi va xafsizligini ta’minlash maqsadida;
- tartibsizliklarni oldini olish va jinoyatchilarga qarshi kurashish maqsadida;
- maxfiy ma’lumotlarni oldini olish maqsadida.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, erkinlik, ayniqsa so‘z erkinligi, insonning asosiy huquqlari va erkinliklari sifatida demokratik jamiyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu erkinlik, albatta, boshqalar huquqlarini hurmat qilish, jamiyat manfaatlari va qonunlarga rioya qilish sharti bilan amalga oshirilishi zarur. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida so‘z erkinligi aniq va huquqiy jihatdan kafolatlangan bo‘lib, bu erkinlik davlat tomonidan himoya qilinadi va fuqarolarga axborotni izlash, olish va tarqatish huquqini beradi. Biroq, bu erkinlik mutlaq emas va u ba’zi holatlarda cheklanishi mumkin, masalan, milliy xavfsizlik, jamoat tartibi yoki boshqalarning huquqlarini himoya qilish maqsadida. Shu bilan birga, xalqaro huquqiy hujjatlar, jumladan, **“Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”** va **“Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro Pakt”** kabi asosiy normativ hujjatlar bilan ham erkinlik va axborot olish huquqi kafolatlanadi. Shunday qilib, erkinlik va javobgarlik o‘rtasidagi muvozanatni saqlash, jamiyatning barqarorligi va har bir fuqaroning huquqlarini hurmat qilish muhimdir.



Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) Коломак, Александр Иванович. «Свобода и ответственность в современном мире.» дис. канд. филос. наук (2006).
- 2) Можейко, М. Л. Свобода // Новейший философский словарь: 3-е изд., исправл. — Мн.: «Книжный Дом». 2003. — 1280 с.
- 3) Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi, 1789 yil 26 avgust, 2013 yil 21 oktyabrda Wayback mashinasida arxivlangan . - Kitobda: Xorijiy davlatlarning konstitutsiyalari.Comp. V.V.Maklakov. M., 1999. - 584 b.
- 4) Frantsiya, Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi. (1789).
[Frantsiya Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi \(1789\)](#)
- 5) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil, 30-aprel).
[O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi \(2023\)](#)
- 6) "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro pakt", BMT, 1966.
[Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro pakt](#)
- 7) "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi", BMT, 1948.
[Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi](#)
- 8) "Inson huquqlari va asosiy erkinliklarni himoya qilish to'g'risidagi Evropa konvensiyasi".
[Evropa Konvensiyasi](#)
- 9) AQSH Konstitutsiyasi, Birinchi qo'shimcha.
[AQSH Konstitutsiyasi, Birinchi qo'shimcha](#)
- 10) O'zbekiston Respublikasi "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi Qonun, 2002.
[Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida Qonun](#)
- 11) O'zbekiston Respublikasi "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi Qonun, 2002.
[Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida Qonun](#)
- 12) Lopatin, V. N. (2020). "Konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishda axborot olish huquqini cheklash".
[Konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishda axborot olish huquqini cheklash](#)
- 13) Suyunov, O. (2021). "Erkinlik va javobgarlik o'rtasidagi muvozanat: so'z erkinligi kontekstida". Jurnal: Ijtimoiy Fanlar, 12(2), 45-58.
[Erkinlik va javobgarlik o'rtasidagi muvozanat](#)
- 14) [file:///C:/Users/user/Downloads/Konferensiya+PDF-257-259+Tursinkulov+Nurali%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/user/Downloads/Konferensiya+PDF-257-259+Tursinkulov+Nurali%20(1).pdf)
- 15) <file:///C:/Users/user/Downloads/Muzafarov+Mirzoramolbek+Yokubkamolovich.pdf>
- 16) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.(Havola)